

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI FAOLIYATIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktab iqtisod fanlari doktori professor

Tojiev Ravshanjon Abduqaxxor o'g'li

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes sub'ektlari faoliyatida amalga oshiriladigan soliq tekshiruvlarining ahamiyati, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, soliq tekshiruvlarini takomillashtirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, soliq organlari va kichik biznes o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlikni kuchaytirish orqali samarali nazorat tizimini shakllantirish mumkinligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, soliq tekshiruvi, takomillashtirish, axborot texnologiyalari, tadbirkorlik, nazorat tizimi.

Abstract: This article analyzes the significance of tax audits in the activities of small business entities, identifies current issues, and explores potential solutions. Special attention is given to the use of information technology in improving the efficiency of tax inspections, reducing unnecessary bureaucratic barriers, and enhancing the overall business environment. Based on the research findings, the article proposes that fostering mutual trust and cooperation between tax authorities and small businesses can help establish a more effective and fair tax control system.

Keywords: Small business, tax audit, improvement, information technology, entrepreneurship, control system.

Bugungi kunda kichik biznes sub'ektlari mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o'ynab, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va mahalliy byudjetlarni to'ldirishda katta hissa qo'shmoqda. Bunday sub'ektlar faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan ularga yaratilgan soliq muhitining shaffofligi va soliq nazoratining adolatli tashkil etilganligiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, soliq

tekshiruvlari mexanizmini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Soliq tekshiruvlari soliq huquqining asosiy institutlaridan biri hisoblanadi.

Soliq huquqining dastabki konseptual asoslari 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan bo'lib, uning 123- moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilishi, soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli ekanligi, shuningdek 51-moddasida fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majbur ekanligi ta'kidlangan.[1] Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining[2] 9-moddasida soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagona ekanligi belgilangan. Demak, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida o'zining soliq tizimi va soliq siyosatini mustaqil belgilaydi. O'tgan davr mobaynida soliq tizimini shakllantirish va takomillashtirish borasida bir qator islohotlar o'tkazildi. Xususan, 1990 yil oxirida soliq organlari tizimini barpo etish uchun dastlabki qadamlar qo'yildi. 1990 yil 17 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qoshidagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi Davlat bosh moliya-soliq boshqarmasini tashkil etish to'g'risida"gi 383-son qarori qabul qilindi. Respublika Oliy Kengashi 1991 yil 14 iyunda "O'zbekiston Respublikasi soliq organlari to'g'risida"gi nizomni tasdiqladi va 1991 yil 12 avgustda Vazirlar Mahkamasining 217-son bilan "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. 1991 yil 12 avgustdan soliq organlarining mustaqil davlat soliq xizmati sifatidagi faoliyati boshlandi. Respublika davlat boshqaruvining mazkur tuzilmasi 1994 yil 18 yanvargacha, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirulgunga qadar faoliyat ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 18 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi masalalari to'g'risida"gi 114-son qaroriga bilan Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Unga ko'ra, Davlat soliq qo'mitasi soliq va bojxona siyosatini amalga oshirish, shuningdek davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoyasini ta'minlash sohasida davlat nazorati organi ekanligi belgilandi.[3] Shu bilan O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining bir qismi bo'lgan soliq organlarining tizimi shakllandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 8 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi

Bojxona qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq Davlat bojxona qo‘mitasi tashkil etildi, ya’ni soliq va bojxona faoliyati funksiyalari ajratildi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi 474-I-son Qonuni qabul qilindi [4]. Soliq tizimining tarkibiy qismi sifatida soliq qonunchiligi asta-sekinlik bilan rivojlanib bordi. Xususan, 1997 yil 24 aprelda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilindi. Bundan tashqari, 2007 yil 25 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasining har yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida qarori hamda yil dasturlari bo‘yicha farmonlari soliq tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF – 5308-sonli Farmonida[5] tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaxo‘jalik faoliyatini tekshirishga ikki yil muddatga moratoriy e‘lon qilinishi belgilandi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF – 5635-son Farmonida[6] soliq ma‘muriyatchiligidan mohiyatan yangi tartibi joriy etilgani sababli soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mahalliy byudjetlar ixtiyorida 5,5 trillion so‘m mablag‘ qoldirilgani[7] qayd etildi.

Soliq nazoratining bir shakli sifatida soliq tekshiruvlarining paydo bo‘lishi soliqlarning joriy etilishi bilan birga vujudga kelgan bo‘lib, davlatning mavjud bo‘lishi uchun zarur moliyaviy mablag‘ni ta‘minlab turish jarayonlarini boshqarishning shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki soliqlarning joriy etilishi soliqlarni undirish jarayonini harakatga keltiradi, soliqlarni undirish jarayoni esa, o‘z navbatida, soliq tekshiruvi jarayonlarini harakatga keltiradi. Soliq tekshiruvlari institutini tadqiq etish jarayonida soliq tekshiruvlarining mohiyatini to‘liq tushunish uchun “soliq tizimi”, “soliq siyosati”, “soliq mexanizmi”, “soliq qonunchiligi”, “soliq nazorati”, “soliqlar” va “tekshirish” kabi tushunchalarni tahlil qilish lozim bo‘ladi. Ushbu tushunchalar to‘g‘risida yuridik adabiyotlarda va huquq sohasi olimlari tomonidan keltirilgan turli xildagi ta’riflar mavjud bo‘lib, ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz. Xususan, D.Shaulov va U.Kanlar ta’kidlashicha soliq tizimi – tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy

va yuridik shaxslar oladigan daromadlardan davlat soliq idoralari undiradigan soliqlar majmui, shuningdek soliq solish usullari va qoidalaridir [8].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o'tamiz: O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 85-moddasi 1-qismiga: soliq tekshiruvi – soliq organlari tomonidan Soliq kodeksida belgilangan tartibda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini ta'minlash maqsadida o'tkaziladigan tadbir-harakatlar yig'indisi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 88-moddasi 1-qismining 1-bandiga: Moliya yili davomida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq qonunchiligini muntazam buzish; eng kam oylik ish haqining 100 baravaridagi so'mmadan ortiq soliq qonunchiligi buzilishi va davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan ustav fondiga ega bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan soliq qonunchiligi buzilish holatlari aniqlanganligi bo'yicha tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organning tekshiruvni o'tkazishga roziligi, ushbu rozilikda tekshiriladigan ob'ektning nomi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, tekshiruvning maqsadi, tekshiruv o'tkazish muddatlari va uni asoslovchi sabablar ko'rsatiladi.

Xulosa: Kichik biznes sub'ektlari iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi va ularning barqaror rivojlanishi davlatning soliq siyosati samaradorligi bilan bevosita bog'liq. Mavjud soliq tekshiruvlari ko'p hollarda tadbirkorlik faoliyatiga to'siq bo'lib, ortiqcha hujjatbozlik va korrupsiyaviy holatlarga olib kelishi mumkin.

REFERENCES

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 03/18/498/2051-son; 06.03.2019 y
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 03/19/526/2701-son, 21.03.2019 y.
3. Shaulov D.I., Kan U.T. Soliq qonunchiligi asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. – 1999. – B.152-153.
4. Shaulov D.I., Kan U.T. Soliq qonunchiligi asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. – 1999. – B.153

5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018y., 06/18/5447/1269-son
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.03.2019 y., 06/19/5687/2723-son
7. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.03.2019 y., 06/19/5687/2723-son
8. Shaulov D.I., Kan U.T. Soliq qonunchiligi asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1999. – B.152.
9. Mansurov S.M., Shodmonov E.Sh. Soliq siyosati va soliq tizimi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYuI. 2004. – B.16.
10. Suyunov D. X. Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash // tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79-83.
11. D.D. Suvanova. Digitalize enterprise business processes methodological approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. Volume 1, Issue 9, December, 2023 ISSN (E): 2938-3811.
12. D.D. Suvanova The digitalization of business processes itself scientific approaches to the characteristics. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. Volume: 19 December 2023.
13. D.D. Suvanova. Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. Elektron nashr.. 2024-yil avgust. № 8-son. 277- sahifa.